

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 197 (986), 2023-yil 27-sentabr, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



O'ZBEKISTON PREZIDENTI QIRG'IZISTON BILAN PARLAMENTLARARO ALOQALARNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGINI TA'KIDLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Qirg'iz Respublikasi Jogorku Keneshi Torag'asi Nurlanbek Shakiyevni qabul qildi.



O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va keng ko'lami strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Qirg'iziston parlamenti raisi davlatimiz rahbariga Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Suhbatda ikki tomonlama hamkorlik bugun yuksak darajaga chiqqani va sarmahsul bo'layotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Xususan, turli darajalarda faol muloqot va almashinuvlar olib borilmoqda, tovar ayirboshlash va yuk tashish hajmi ortmoqda, kooperatsiya loyihalari, shu jumladan, qo'shma jamg'arma investitsiyalarini jalb qilgan holda amalga oshirilmoqda.

Ko'p qirrali munosabatlarni kengaytirish, oliy darajada erishilgan kelishuvlarni ro'yogga chiqarish va istiqbolli loyihalarni ilgari surish, hududlar va ishbiarmonlar darajasida amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda mamlakatlarimizda madaniy-gumanitar tadbirlarni o'tkazishda yaqin parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

Ixtisoslashtirilgan xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik va o'zaro muvofiqlashuvni kuchaytirish muhim ekani ta'kidlandi.

O'ZA

"BYD" KOMPANIYASINING MAMLAKATIMIZDA AVTOMOBILLAR ISHLAB CHIQRISHNI TO'LIQ YO'LGA QO'YISH REJALARI QO'LLAB-QUVVATLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-sentabr kuni Xitoyning yetakchi "BYD" kompaniyasi prezidenti va asoschisi Van Chuanfu boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Ta'kidlash joizki, "BYD" kompaniyasi zamonaviy elektromobillar va yangi avlod akkumulyator batareyalarini ishlab chiqarish sohasida global yetakchi hisoblanadi. Bir yilda 2 million dona mashina ishlab chiqaruvchi ushbu konsern dunyo avtomobil sanoati rivojlanishining asosiy tendensiyalarini belgilab bermoqda.

Uchrashuvda kompaniyaning O'zbekistondagi faoliyatini kengaytirishning amaliy jihatlari, xususan, Jizzax viloyatida gibrid va elektr avtomobillar ishlab chiqarishni tez fursatda yo'lga qo'yish hamda keyingi bosqichlarda uning quvvatini 300 ming donaga yetkazish masalalari ko'rib chiqildi.

O'ZA

MAHALLA TIZIMINI YANADA KUCHAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 26-sentabr kuni mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Mamlakatimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi talabidan kelib chiqib, joylarda amalga oshirilmoqda. Buning uchun mahallalarga ko'plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berildi. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat "beshlik tizimi" tashkil etildi.

Lekin ularning o'zaro muvofiq ishlashida kamchiliklar, juda ko'p takrorlanishlar bor. Ijtimoiy maqsadagi mablag'lar ba'zan samarasiz yo'naltirilyapti. Ehtiyojmand aholining masalasini hal qilish viloyat va respublika idorasiga bog'lanib qolgan. Mahalla xodimlari faoliyatini baholash mezonlari yo'q. Ularning ko'p vaqti "qog'oz to'ldirish" va majlislariga ketyapti.

Yig'ilishda shu kabi kamchiliklar tahlil qilinib, tizimni takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha yangi yondashuvlar belgilandi.

Unga ko'ra, endi mahalla boshqaruviga soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimi ham qo'shilib, "mahalla yettilligi" bo'ladi.

Ehtiyojmand aholini ro'yxatga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar tuman va viloyat

idoralarga chiqmasdan, mahallaning o'zida jamoaviy hal qilinadi. Shuningdek, Bandlik, Tadbirkorlik va Kasanachilik jamg'armalari mablag'lari har bir mahallaga taqsimlab beriladi.

Mahallada qulay va elektron ish yuritish yo'lga qo'yiladi. Amaldagi uchta platforma — "Onlayn mahalla", "Xotin-qizlar", "Yoshlar portali" o'zaro integratsiya qilinib, yagona tizimda mujassamlashtiriladi.

"Mahalla yettilligi" ishini muvofiqlashtirishda mahalla raislarining vakolatlari kengaytiriladi. Jumladan, ular hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xodimni rag'batlantirish yoki intizomiy jazo qo'llash bo'yicha taqdimnoma kiritish vakolatiga ega bo'ladi.

Shulardan kelib chiqib, mutasaddilarga "mahalla yettilligi"ning vazifalarini aniq belgilash va faoliyatini to'g'ri yo'naltirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Ijtimoiy loyihalarga ilmiy va nodavlat tashkilotlarni ham jalb qilish muhimligi aytili.

Yig'ilishda mahalla tizimini takomillashtirishning tashkiliy choralari ham belgilandi. Xususan, mahallalarni rivojlantirish va qo'llab-

quvvatlash bo'yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etiladi. Respublika kengashlari esa hokimlar rahbarlik qiladi. Kengashlar "mahalla yettilligi" qo'ygan masalalarga yechim topadi, moliyaviy manbalarini hal qilib beradi.

Mas'ullarga muhokamada bildirilgan barcha takliflarni inobatga olingan holda, sohaning tashkiliy tuzilmasi, vakolatlari va moliyalashtirish manbalari ko'rsatilgan hujjat loyihasi ishlab chiqish topshirildi.

Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilib kelyapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Endi yana qo'shimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu ham vakolat, ham mas'uliyat degani. Mahallalar — davlatimizning eng katta zamin, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilish so'ngida vazirlar va hokimlar, joylardan mahalla raislari ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar va yangi topshiriqlardan kelib chiqib, kelgusidagi ish rejalarini bo'yicha axborot berdi.

O'ZA

BUYUK O'ZBEK YO'LI

XALQ ISHONCHI - QUTLUG' TAQDIR YOXUD YASHOVCHANLIK VA BARDAVOMLIK RUHI

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BMT BOSH ASSAMBLEYASIDAGI NUTQIDAN O'RIN OLGAN 10 TA MUHIM ASPEKT

Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas. Mazkur ibora paydo bo'lganidan buyon ming yillar o'tdi. Bu butun koinot, tabiat va bashariyat doimiy o'zgarishda, yangilanishda, deganidir. Darhaqiqat, insoniyat ham ana shu azaliy qonuniyat asosida yashaydi va hayot kechiradi. Bu fikrlar Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobi muqaddimasidan o'rin olgan. Bugun biz shu azaliy hikmat qoidasining yangilanayotgan falsafasi va hayotiy mohiyati haqida mushohada yuritmoqchimiz.

Maqsadimiz avvalida esa Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi o'z nutqini xalqaro munosabatlarda fundamental o'zgarishlar yuz berayotgani ishorasi bilan boshlaganiga e'tibor qaratamiz. Ishora jahon miqyosida ishonch inqirozi kuzatilayotgani, global xavfsizlik institutlari faoliyatidagi muammolar va xalqaro huquq me'yorlaridan chekinish kuchayayotgani, bularning barchasi keng ko'lamdagi keskinlik ortishiga sabab bo'layotgani bilan oydinlashtirildi.

Bu nutqdagi birinchi e'tiborli nazar va kishini hushyor torttiradigan katta chaqiriq edi. Fundamental o'zgarishlar qanday sharoitda va nimalar ta'sirida yuz bermoqda? Bu, avvalo, tabiat kuchi va ruhi bilan bog'liq. Insoniyatning ortda qolgan cheksiz evolyutsiyasi asrdan asrga, davrdan davrga hayot uchun kurashning yangi tendensiyalarini ortmoqlab o'ta boshladi, ularning har birida quvvatlanish ruhi bo'ldi.

Ixtirolarning barchasi tiriklik yoki tirikchilik ehtiyoji uchun yaratilgani ayon. Shu bilan birga, bu ixtirolar odam avlodlari qarabida tabiatning ko'zga ko'rinuvchi va harakatga keluvchi mohiyati ustidan hukmronlik hissinani ham uyg'otdi. Shunda qudratli qarashlar shakllandi. Uning ortidan shaxsiylikka intilish fikri kurtakladi.



Tabiat — buyuk qudrat. Mo'jizaviy xarakterga ega. Bu xilqat asrlar mobaynida insoniyat uchun tiriklik manbai bo'lib kelmoqda. Lekin unga nisbatan ayovsiz munosabat kishilik jamiyatiga juda katta inqiroz bo'lib qaytayotganini biz — bugungi avlodlar ko'rib, o'z hayotimizda sezib turibmiz.

Mana shu faktorlarning barchasi davlatlar o'rtasida bo'linish, o'zaro ishonch inqirozi sodir bo'lishiga zamin yaratgani sir bo'lmay qoldi. Shu ma'noda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqaro munosabatlarda tizimida fundamental o'zgarishlar yuz berayotgani haqidagi fikrlari dunyo minbaridan turib aytilgani barchamizni yana bir bor ogohlikka chorladi. Zero, yangilanayotgan, o'zaro bog'liqlikda rivojlanish ehtiyoji paydo bo'lgan asrimizda zarur xulosalar chiqarish va hamijahatlikni, ishonch ruhini mustahkamlash, tinchlikni asrash har qachongidan-da dolzarb, juda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ikkinchi muhim aspekt — **birdamlik tashabbusi**. Bu hozirgina aytganimiz — ishonch inqirozining malhami, deysh o'rinni bo'ladi. Shu bois, bu tashabbus xalqaro ekspertlar, siyosiy doira vakillari tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda.

"O'zbekiston rahbarining butun insoniyat uchun xavf-xatar va tahdidlarning misli ko'rinmagan darajada ko'payishi bilan bog'liq zamonaviy global jarayonlarga bergan baholari alohida ahamiyatga ega. Shavkat Mirziyoyevning geosiyosiy qarama-qarshiliklar butun insoniyat taqdiriga daxldor masalalarda ham muloqotga putur yetkazayotgani haqidagi bayonotiga qo'shimlaslik aslo mumkin emas. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston rahbarining jahon hamjamiyatiga qanday sayyorani kelajak avlodlarga qoldirishimiz haqida o'ylashga chaqirig'i muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek, bugungi kunda o'zaro ishonch, hamijahatlik va hamkorlik har qachongidan ham zarur". Bu fikrlar SHHT tadqiqotlari instituti direktori Den Xaoga tegishli.

Bundan xulosa qilish mumkin, aslida, birdamlikka intilish hissi insoniyat uchun begona emas. Boisi, hech kim o'z muammolari bilan yolg'iz qolishni istamaydi. Bu o'rinda xalqimiz dahosiga tan bermay iloj yo'q. Kayonilimiz "Yolg'iz o'tning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas", deya bejiz aytmagan.

Davomi 3-betda



1-OKTABR — O'qituvchi va murabbiylar kuni

MAKTAB QURGAN MUALLIM

5-betga qarang.

